

IE-TO-02.23 sonli SHARTNOMA

Toshkent sh.

“09” yanvar 2023 yil

"O'zbektelekom" AK "BKM" filiali nomidan amaldagi nizom asosida ish olib boruvchi direktor Arifxanov S.A., keyinchalik "Buyurtmachi" deb ataluvchi, bir tomondan va "Industrial Engineering" MCHJ, amaldagi nizom, asosida ish olib boruvchi direktor Xamdamov T.B., keyinchalik "Ijrochi" deb ataluvchi, boshqa tomondan, ushbu Shartnomani quyidagicha tuzdilar:

1. Shartnomaning mazmuni

1.1. Ijrochi ushbu shartnomaga ilova qilingan Buyurtmachining texnik topshirig'iga asosan "O'zbektelekom" AK "BKM" filialiga tegishli ob'ektlarda avtomatik ravishda yong'indan xabar berish va avtomatik ravishda yong'inni o'chirish tizimlarining uzluksiz ishlashini ta'minlanishidagi servis xizmatlarini ko'rsatish majburiyatini oladi, Buyurtmachi esa, o'z navbatida, mazkur shartnoma shartlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

1.2. Ishning hajmi TT (texnik topshiriq)qa asosan bajarilishi talab etiladi:

1.2.1. Avtomatik yong'in signalizatsiyasi (AYoS) va avtomatik yong'in o'chirish (AYoO') tizimlariga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, yong'in o'chirish kranlari va (rukava)larning ishchi holatini ta'minlash.

1.2.2. AYO'S va AYO'O' tizimlarining texnik holatini nazorat qilish.

1.2.3. AYO'S va AYO'O' tizimlari loyiha va texnik hujjat talablari asosida o'rnatilganligini tekshirish.

1.2.4. AYO'S va AYO'O' tizimlarida har-xil sharoitlar tufayli ishlash mexanizmiga xalaqit qiluvchi omillarni bartaraf etish.

1.2.5. AYO'S va AYO'O' tizimlarida soxta ishlab ketish sabablarini aniqlab, bartaraf etish.

1.2.6. Qo'shimcha to'lov evaziga bir martalik xizmat ko'rsatish.

1.3. "O'zbektelekom" AK "BKM" filialiga tegishli ob'ektlarda avtomatik ravishda yong'indan xabar berish va avtomatik ravishda yong'inni o'chirish tizimlarining uzluksiz ishlashini ta'minlanishidagi servis xizmatlarini ko'rsatish ishlari TXK (texnik xizmat ko'rsatish) o'tkazilgandan keyin "Buyurtmachi" tomonidan tekshiriladi, shundan keyin tomonlar "TXK" bo'yicha ishlarni o'tkazish" jurnalini belgilangan tartibda to'ldiradilar va o'z imzolari bilan tasdiqlaydilar.

1.4. TT (texnik topshiriq)da keltirilgan ishlar bajarilishida qurilish normalari va qoidalarining 2.04.09-2006, yong'in xavfsizligi bo'yicha yo'riqnomaning 01-003:2008 va avtomatik ravishda yong'indan darak beruvchi tizimga hamda avtomatik ravishda yong'inni o'chirish tizimiga taalluqli bo'lgan boshqa me'yoriy hujjatlar asosida ishlar olib boriladi.

2. Ishni qabul qilish va topshirish tartibi

2.1. “O‘zbektelekom” AK “BKM” filialiga tegishli ob’ektlarda avtomatik ravishda yong‘indan xabar berish va avtomatik ravishda yong‘inni o‘chirish tizimlarining uzluksiz ishlashini ta‘minlanishidagi servis va ta‘mirlash xizmatlarini ko‘rsatish ishlari TX (texnik xizmat ko‘rsatish) o‘tkazilgandan keyin “Buyurtmachi” tomonidan tekshiriladi, shundan keyin tomonlar “TO va PPR” bo‘yicha ishlarni o‘tkazish” jurnalini belgilangan tartibda to‘ldiradilar va o‘z imzolari bilan tasdiqlaydilar.

3. Shartnoma narxi va hisob-kitob qilish tartibi

3.1. Texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ish qiymati bir yil uchun 1-sonli Ilovaga muvofiq QQS bilan 240 000 000 (ikki yuz qirq million) so‘mni tashkil qiladi.

3.2. To‘lov quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi:

3.2.1. “Buyurtmachi” “Ijrochi” tomonidan berilgan hisob asosida ushbu shartnoma har ikki tomon imzolanganidan keyin 5 (besh) bank kuni ichida ushbu shartnomaning umumiy summasining 15 foizi miqdorida summani oldindan amalga oshiradi.

3.2.2. Oylik texnik xizmat ko‘rsatish qiymatining 85 foizi miqdorida yakuniy to‘lov tomonlar tomonidan imzolangan bajarilgan ishlar to‘g‘risidagi dalolatnoma va rasmiylashtirilgan hisob-faktura asosida ilgari amalga oshirilgan oldindan to‘lovni hisobga olgan holda 5 (besh) bank kuni ichida amalga oshiriladi.

3.3. Agar ushbu shartnoma shartlarida nazarda tutilmagan qo‘shimcha ishlarni bajarish zarurati tug‘ilsa, ushbu ishlar ushbu shartnomaga qo‘shimcha kelishuv bo‘yicha, shartnoma umumiy summasining 10 foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda amalga oshiriladi.

3.4. Barcha to‘lovlar uchun to‘lov “Buyurtmachi” tomonidan “Ijrochi”ning hisob raqamiga O‘zbekiston milliy valyutasi “so‘m”da mablag‘ o‘tkazish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

4. “Ijrochi”ning huquq va majburiyatlari

4.1. “Ijrochi”ning huquqlari:

4.1.1. “Buyurtmachi” tomonidan shartnoma shartlari bajarilmagan hollarda, bu haqda “Buyurtmachi”ni 15 (o‘n besh) ish kunidan oldin xabardor qilib, texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ishlarni to‘xtatish;

4.2. “Ijrochi”ning majburiyatlari:

4.2.1. “Ijrochi” ushbu shartnomada belgilangan miqdorda tegishli malakaga ega bo‘lgan xodimlar tomonidan ishlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish majburiyatini oladi.

4.2.2. Tegishli malakali xodimlar tomonidan texnik xizmat ko‘rsatish.

4.2.3. Ushbu shartnomaning amal qilish muddati davomida obyektida hodimlar tomonidan xavfsizlik talablariga rioya etilishini, obyekt rejimida kirishni nazorat qilishni, yong‘in, elektr va ekologik xavfsizlikni ta‘minlaydi.

- 4.2.4. Kelishilgan “Reglament”ga asosan ishlarni o‘z vaqtida bajarishni ta’minlash.
- 4.2.5. Shartnoma tuzish jarayonida “Buyurtmachi” tomonidan taqdim qilingan “Texnik shart” asosida ishlarni bajarishni ta’minlash.
- 4.2.6. Ishdan chiqqan uskunalarni ta’mirlaydi, agar ta’mirlashni imkoni bo’lmasa boshqasiga almashtiradi;
- 4.2.7. “Buyurtmachi”ning chaqirig’i bo’yicha dam olish va bayram kunlarini hisobga olgan holda xizmat ko’rsatilayotgan obyektga 12 soat ichida yetib kelishini ta’minlash.
- 4.2.8. Favqulodda xollarda “Buyurtmachi”ning chaqirig’i bo’yicha ish kunlari, dam olish kunlari, bayram va boshqa kunlarda tunu-kun bo’lishidan qat’iy nazar zudlik bil yetib kelishni ta’minlash.
- 4.2.9. “Ijrochi” “Buyurtmachi”ga 2.1-bandda ko’rsatilgan ishlarni bajarish muddati tugagan kundan boshlab 5 kalendar/kundan kechiktirmay ishlarning tugallanganligi to’g’risidagi akti va hisob-fakturani taqdim etadi.
- 4.2.10. Buyurtmachi tomonidan shartnomaga biriktirilgan “Texnik shart” mazkur shartnomani ajralmas qismi hisoblanadi.
- 4.2.11. Taraflar bilan kelishilgan reglament ro’yhati ushbu shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

5. “Buyurtmachi”ning huquq va majburiyatlari

5.1. “Buyurtmachi”ning huquqlari:

- 5.1.1. “Ijrochi” tomonidan texnik xizmat ko’rsatish bo’yicha bajariladigan aniq ish hajmi va sifatini nazorat qilish;
- 5.1.2. “Ijrochi” tomonidan texnik xizmat ko’rsatish bo’yicha ishlar o‘z vaqtida va sifatli bajarilmaganda to’lovni kechiktirish;

5.2. “Buyurtmachi”ning majburiyatlari:

- 5.2.1. “Ijrochi” tomonidan taqdim etilgan yakuniy akt topshirilgan kundan boshlab 5 kalendar kundan kechiktirmay qabul qiladi va imzolash yoki “Ijrochi”ga asoslantirilgan rad javobini yuboradi.
- 5.2.2. “Ijrochi” tomonidan bajarilgan ishlarni ro’yxatdan o’tkazish jurnalida qayd etilishini va imzo qo’yish orqali ishlarni qabul qilish;
- 5.2.3. “Ijrochi”ning obyekt hududiga kirishi uchun ruxsatnomani rasmiylashtirish;
- 5.2.4. “Ijrochi”ga tegishli hujjatlarni taqdim etish;
- 5.2.5. “Ijrochi”ga ishdan chiqqan asbob o’rniga boshqasini topshirish;

6. Nizolarni ko’rib chiqish tartibi

6.1. Mazkur Shartnomani bajarish, talqin qilish va qo’llash jarayonida yuzaga keladigan nizolar va kelishmovchilik tomonlarning o’zaro muzokaralar yo’li bilan hal qilinadi. Tomonlar o’zaro kelishuvga erishmagan taqdirda, nizolarni hal etishning sudgacha da’vo tartibiga rioya qilgan holda, nizoli masalalar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga ko’rib chiqish uchun kiritiladi. Nizoni hal qilish uchun huquqi buzilgan

tomon da'vo bilan chiqadi. Da'voga javob 10 (o'n) kalendar kuni ichida yuboriladi. Nizolar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq ko'rib chiqiladi.

6.2. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy asoslari to'g'risida"gi Qonunga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

7. Fors-major holatlari

7.1. Tomonlarning hech biri o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmaganlik uchun javobgar bo'lmaydi, agar sud amaliyotida fors-major holatlari deb qabul qilingan va O'zbekiston Davlat Respublikasi organi tomonidan tasdiqlangan fors-major holatlarining (zilzilalar, bo'ronlar, suv toshqini yoki boshqa tabiiy ofatlar: epidemiyalar, harbiy harakatlar, ijro etuvchi hokimiyat tartibsizliklar, organlarining harakatlari va qarorlari yoki tomonlarning nazorati ostida bo'lmagan boshqa omillar) ta'siri natijasida bajarilmagan bo'lsa.

7.2. Bunday holatlar yuzaga kelganda, o'z majburiyatlarini bajara olmaydigan tomon boshqa tomonni bu haqda darhol yozma ravishda xabardor qilishi shart. Xabarda fors-major holatlarining boshlanish sanasi, mumkin bo'lgan davomi, tabiati, oqibatlari ko'rsatilishi kerak. Yuqoridagi xabar yuborilgan kundan boshlab 30 kun ichida O'zbekiston Respublikasi davlat organi tomonidan berilgan hujjat bilan tasdiqlanishi kerak.

7.3. Agar yuqoridagi holatlar 6 oydan ortiq davom etsa, tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishni to'liq yoki qisman rad etishga haqli. Bunday holda, tomonlar o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshiradilar, ammo tomonlardan hech biri boshqa tomondan yetkazilishi mumkin bo'lgan har qanday zararni qoplashni talab qilishga haqli emas.

7.4. Agar tomonlardan biri ushbu bo'limda ko'rsatilganlardan tashqari, biror sabablarga ko'ra shartnoma majburiyatlarini bajarmagan bo'lsa yoki majburiyatlarni bajarmaslikning oldini olish bo'yicha, tegishli choralar ko'rmagan bo'lsa, u holda ushbu tomon mazkur Shartnomaning ushbu bo'limiga murojaat qilish huquqiga ega emas.

8. Korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar

8.1. Tomonlar ularning har biri poraxo'rlik va korrupsiyaga nisbatan murosasizlik siyosatiga ega ekanligini tan oladilar va tasdiqlaydilar, bu esa korrupsion xatti-harakatlarni to'liq taqiqlashni va yordam uchun to'lovlarni amalga oshirish va yordam/to'lovlar uchun to'lovlarni amalga oshirishni nazarda tutadi, uning maqsadi rasmiyatchilikni soddalashtirishdir. Xo'jalik faoliyati bilan bog'lash, ayrim masalalarni tezroq hal qilishni ta'minlash. Tomonlar o'z faoliyati amaldagi qonunchilik hamda uning asosida ishlab chiqilgan poraxo'rlik va tijorat poraxo'rligiga qarshi kurashishga qaratilgan siyosat va tartiblarga amal qiladilar.

8.2. Tomonlarning har bir xodimi biror-bir shaxsga (shu jumladan va faqat shuning o'zi bilan cheklanmasdan, alohida insonlarga, tijorat tashkilotlariga davlat lavozimida ishlaydigan shaxslarga) korrupsiya to'lovini (pul yoki boshqa qimmat sovg'a) taklif etmasligi, bermasligi va shunga rozi bo'lmasligiga kafolat beradi, bundan tashqari, biror-bir shaxsdan bevosita yoki bilvosita korrupsiya to'lovi (pul yoki qimmat sovg'a) olishga harakat qilmaslikka, olmaslikka yoki shunga rozi bo'lmaslikka ham kafolat beradi.

8.3. Tomonlarning biri 8.1. va 8.2-bandlarda aytilgan qonun buzilishi bo'lganini yoki bo'lishi mumkinligini bilgan taqdirda shu tomon rasmiy aloqa yo'llari bilan yozma xabar jo'natib yoki ishonch telefoniga qo'ng'iroq qilib boshqa tomonni bu haqda ogohlantiradi. Yozma xabar jo'natgan Tomon boshqa Tomon, unga bog'liq tashkilotlar, xodimlar yoki vositachilar ushbu Shartnomaning 8.1. va 8.2-bandlaridagi qoidani buzganini yoki mumkinligini buzishi tasdiqlaydigan yoki shunday deb taxmin qilishga asos bo'ladigan fakt yoki materiallarni taqdim etishi lozim.

9. Shartnomaning amal qilish muddati

9.1. Ushbu shartnoma har ikkala tomondan imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va hisobot yilida amal qiladi.

9.2. Ushbu shartnoma ikki nusxada o'zbek tili lotin alifbosida tuzilgan. Ikkala nusxa bir xil yuridik kuchga ega. Tomonlarning har biri ushbu shartnomaning bitta nusxasiga ega.

9.3. Ushbu shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, agar ular yozma ravishda tuzilgan va vakolatli taraf tomonidan imzolangan bo'lsa, haqiqiy hisoblanadi.

9.4. Shartnomaning bekor qilinishi "Buyurtmachi"ni "Ijrochi" tomonidan amalda bajarilgan xizmatlar uchun haq to'lash majburiyatidan ozod etmaydi.

10. Tomonlarning yuridik manzillari

"Buyurtmachi"

"Ijrochi"

«O'ZBEKTELEKOM» AK
«BOSH KOMMUTATSIYA MARKAZI» FILIALI
100011, Toshkent sh., Navoiy 28
(+99871) 244-65-35, (+99871) 238-11-72
H/R: 2021 0000 3040 7483 8052
AT «ALQABANK» ning Amaliyot Boshqarmasi
Bank kodi: 00401 STIR: 293 366 731 IFUT: 61100



[Handwritten signature]

«Industrial Engineering» MCHJ

Toshkent sh. Mirzo Ulug'bek tumani, 57-44

H/r: 2020 8000 8009 3303 2001

Toshkent sh.dagi ATB «ASIA ALLIANCE BANK» MFO: 01103,

STIR: 305807708


OKED: 43990

QQS to'lovchi kodi: 326 020 090 582


Tel. (71) 241-06-02

«Industrial Engineering» MCHJ direktori

Xamdamov T.B.



KELISHILGAN
“Industrial Engineering” MChJ
direktori



T.B. Xamdamov

TASDIQLAYMAN
“O‘zbektelekom” AK
“BKM” filiali direktori



S.A. Arifxanov

“BKM” filialining qo‘riqlash-yong‘in signalizatsiya qurilmalari va avtomatik ravishda yong‘inni o‘chirish tizimiga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ishlar

Ro‘yxati

1-sonli Reglament

1.1 Korpus, tugmalar, uskunalarining yoqish va o‘chirish mexanizm holatini tashqi tekshirish, qabul qilish - nazorat moslamasining (QQNM) yorug‘lik ko‘rsatkichi, uni mahkamlash va mexanik shikastlanishlar yo‘qligi uchun tashqi ulanishlar.

1.2 Daraklovchi qurilmalarni signalizatsiya halqasi bilan ulanganligi va mahkamlanganligi holatini nazorat qilish.

1.3 Tarmoq daraklovchi qurilmalarining korpuslari sozligi holati, o‘rnatilishi, ulanishi, ovoz xamda yorug‘lik beruvchi uskunalar, daraklovchi uskunalarining chiroqlari sozligi va yaxlitligini nazorat qilish.

1.4 Har bir shleyf bo‘yicha uskunalarni sozligi va samaradorligini “YoNG‘IN”, “TREVOGA” rejimida ishlashini va “kutish rejimi”ga o‘tishini tiklanishini tekshirish.

1.5 Qurilmalarni ish holatiga keltirish uchun 1.1-1.4-bandlar bo‘yicha ishlarni bajarish jarayonida aniqlangan nosozliklarni bartaraf etish.

2-sonli Reglament

2.1 Qabul qilish - nazorat moslamasi korpusining tashqi yuzalarini tozalash, ichki montaj, rele, ulagichlar kontaktlari; ularning holatini nazorat qilish.

2.2 Xabar bergichlarning tashqi yuzalarini tozalash, ichki montaj, “rozetka-xabarlagich” aloqa guruhlarini tozalash; halqaning yordamchi elementlar holatini (rezistorlar, diodlar va boshqalar), ulanish qutilarining kontaktlari holatini nazorat qilish.

2.3 Xabar bergichlarning tashqi yuzalarini tozalash.

2.4 Индикатор чироклари, лед чироклар, светодиоd, тугмалар, ускуналарнинг ёкиш ва ўчириш механизми тугмалари, сақлагичлар, бошқарув панелининг ўрнатилган батареяларини ва унинг ташқи уланишларини таъмирлаш, тиклаш ва алмаштириш.

2.5 Uzilishlarni, qisqa tutashuvni bartaraf etish, signalizatsiya halqasining mustahkamligini, aloqa liniyalarini tiklash, halqaning yordamchi elementlarini almashtirish, zarur hollarda rozetka va uskunalar o‘rtasidagi kontaktlarni tiklash.

2.6 Tashqi ulanishlarni mahkamlash chidamliligini tiklash, elektr lampalarni almashtirish.

2.7 Yong‘inga qarshi shlanglarni qayta o‘rash.

2.8 Reglamentda nazarda tutilgan namunaviy ishlarni to‘liq bajarish

Eslatma: ish hajmi YOQAO‘ni (yong‘inga qarshi avtomatikani o‘rnatish) tartibga soluvchi texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ishlarni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha yo‘riqnoma talablariga muvofiq belgilanadi.

MM, XT va Yox bo‘yicha bosh mutaxassis

Sh. Toshxo‘jayev